



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Пайдаланылған әдебиеттер тізімі:

- Канайкина Е.П. Приемы развития творческих способностей учащихся начальных классов на уроках литературного чтения // <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/2014/12/07/priemy-razvitiya-tvorcheskikh-sposobnostey-uchashchikhsya>
- Yakubova M.Y. Umumta'lim maktab o'quvchilarida kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ("Texnologiya" fani misolida). Ped. fan fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Chirchiq, 2023. – 51 b.
- Абдувалитов Н. [тағы басқ.]. Ана тілі және оқу сауаттылығы. З-сынып [Мәтін]: оқулық / 2-бөлім. – Ташкент: Республикалық білім орталығы, 2025. – 179-б.
- Abduvalitov N. Ways of Teaching Samples of World Literature at Literature Classes by Grene Features. <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com Volume 9, Issue 3 March, 2022 Pages: 219-223.
- Bazarbayeva Raykhan Abdimumin qazy Socio-psychological bases of forming speaking competence based on students' creative thinking. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. <https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/3485>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KHIL9827

**LINGVOKULTUREMALARNING TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
JARAYONIDAGI ROLI XUSUSIDA**

Inogamova Nargiza Shavkatovna*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi**Inagamovan74@gmail.com**<https://orcid.org/0000-0002-4529-9005>*

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida milliy til va milliy adabiyotni tadqiq etishga nafaqat nazariy-metodologik, balki amaliy jihatdan yondashish ham bugungi kun zaruratlardan biridir. Shu bois mazkur maqolada o'zbek tilini talabalarga ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida milliy til va milliy adabiyot haqida atroflicha ma'lumot berish yo'li bilan yoshlarda tilga hurmat, uni o'rGANISHGA bo'lgan ishtiyoq hamda estetik tarbiyani shakllantirish, bunda milliy til va milliy adabiyotimizning o'rni katta ekanligini yoshlar ongiga singdirish, ularda ajdodlarimiz uchun nihoyatda qadrli bo'lgan ma'naviy merosimizga muhabbat, hurmat hissini uyg'otish borasidagi mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: milliy til va milliy adabiyot, zamonaviy ta'lrim texnologiyalari, darsga tizimli yondashuv masalalari, lingvokulturema , koloristika, lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik.

Аннотация: В процессе построения Нового Узбекистана становится актуальной не только теоретико-методологическая, но и практическая необходимость изучения национального языка и национальной литературы. В связи с этим в данной статье рассматриваются вопросы формирования у молодёжи уважения к языку, стремления к его изучению, а также эстетического воспитания через всестороннее ознакомление с национальным языком и литературой при обучении узбекскому языку как второму. Подчёркивается важная роль национального языка и литературы в формировании сознания молодёжи, пробуждении любви и уважения к духовному наследию, которое было особо ценным для наших предков.



Ключевые слова: национальный язык и литература, современные образовательные технологии, вопросы системного подхода к обучению, лингвокультуре ма, колористика, лингвокультурология, культурология.

Annotation: In the process of building the New Uzbekistan, it is essential not only to approach the study of the national language and national literature from a theoretical and methodological standpoint but also from a practical perspective. Therefore, this article discusses the importance of providing students with comprehensive information about the national language and literature when teaching Uzbek as a second language. The aim is to foster respect for the language, a desire to learn it, and aesthetic appreciation among youth. The article emphasizes the significant role of the national language and literature in shaping young people's consciousness and awakening in them a sense of love and respect for our spiritual heritage, which was of great value to our ancestors.

Keywords: national language and literature, modern educational technologies, issues of systematic approach to teaching, linguocultureme, coloristics, linguoculturology, cultural studies.

Har bir xalqning, xususan, o'zbek xalqining tarkib topishi tarixi qanchalik uzoq o'tmishga borib taqalsa, uning milliy tili, adabiyoti ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega ekanligi ma'lum bo'lib boraveradi. Milliy til va milliy adabiyot xalqning ma'naviy ehtiyojlari zamirida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat oliy qadriyat sanalmish tili va adabiyotini ko'z qorachig'iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida yetkazmog'i lozim. Darhaqiqat, til va adabiyot xalqning, millatning ma'naviyati, milliy qadriyatlarining ajralmas qismidir. Ma'naviyatning yuksalishi esa estetik tarbiyaning mukammallahuviga zamin yaratadi. Til, adabiyot, estetik tarbiya va ma'naviyat tushunchalari milliy qadriyatlar asosida birlashadi.

Darhaqiqat, mustaqil davlat sifatida Yangi istiqbol sari dadil qadamlar tashlayotgan O'zbekiston Respublikasi o'ttiz to'rt yil bo'libdiki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining maqbul va ustuvor yechimlarini o'zi topib kelmoqda. Respublikada olib borilayotgan til siyosati ham ana shunday mukammal va to'g'ri tanlangan yo'l hisoblanadi. O'zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishga qaratilgan ustivor vazifalar o'zbek tilining Davlat tili sifatida ijtimoiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishga va uning rasmiy-idoraviy muloqot sohasidagi mavqeyini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga yurtimizda Respublika hududida yashayotgan boshqa millat vakillarining davlat tiliga bo'lgan hurmatini saqlagan holda o'z milliy tillaridan foydalanish, fuqarolarning rus va chet tillarini o'rganish va rasmiy qo'llashlari uchun ham keng imkoniyat yaratilmoqda. Boshqa millat vakillarining respublika davlat tilini o'rganishlarini, o'zbek tilida erkin so'zlasha olish va ish yurita bilishlarini hozirgi va kelajak turmushning o'zi taqozo etmoqda. Hamjihatlik va do'stlikda yashab, tub mahalliy xalqning tili, madaniyati, urf-odatlarini e'zozlash respublika hududida istiqomat qiluvchi boshqa millatga mansub aholining ma'naviy burchi va hayotiy ehtiyojiga aylanmoqda. Shunga ko'ra, bugungi kunda o'zbek tilini ta'lim-tarbiya tizimida



uzluksiz o'rgatish ishini yanada takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. Bu esa pedagoglarning bilim saviyasi, malakasini oshirish bilan birga til o'qitishga yangi konseptual yondashuvlarni belgilab chiqish, ta'lim samaradorligini oshirish, til o'qitishda jahonda qo'llanadigan ilg'or metod va texnologiyalardan foydalanish masalasini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda, ta'lim tizimini yangilash, fanlarga oid yangi, zamonaviy darslik va qo'llanmalar yaratish, shu bilan birga, darsga tizimli yondashuv masalalari o'z yechimini topishi kerak bo'lgan davrda, til o'qitish bo'yicha yaratilayotgan o'quv adabiyotlari ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur. O'zbek tilining leksik, grammatic, uslubiy imkoniyatlarini lingvistik tadqiq etish bilan bir qatorda, tilshunoslarimiz oldida o'zbek tilini Davlat tili sifatida o'qitishning samarali uslublari bo'yicha izlanishlarni kuchaytirish vazifasi zaruriyatga aylanib bormoqda. Davlat tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish, mamlakatimizda o'zbek tilini har jabhada keng qo'llash, O'zbekiston fuqarolarining davlat tilini bilishi, bu tilda erkin so'zlasha olishi, o'z kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga hanuzgacha to'liq erisha olmayotganimiz mutaxassislar oldiga katta vazifani qo'ymoqda. Shu ma'noda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish va oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish lozimligi davr talabiga aylanmoqda. Shu o'rinda, til o'qitishda badiiy adabiyotning ta'sir kuchidan foydalanishlik, madaniyatlararo til xususiyatlarini lingvokulturologik aspektida o'rganish ham samarali natija berishishini ta'kidlash lozim.

Ligvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'rtasidagi soha bo'lib, til va madaniyat masalalarini, madaniyatlararo til xususiyatlarini o'rganadi. Ligvokulturologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari lisoniy shaxs hamda til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi. "Mualliflarning madaniyatga bergen ta'riflari umumlashtirilsa, madaniyatga *butun tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi*", deb ta'rif berish mumkin. Shunga asosan madaniyatning ikki turi farqlanadi: 1) moddiy madaniyat; 2) ma'naviy madaniyat; Moddiy madaniyat inson faoliyati tufayli yaratilgan "ikkinchi tabiat", ya'ni ishlab chiqarilish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ko'nikmalari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan hayot uchun hizmat qiladigan barcha boyliklarni anglatadi. Ma'naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari, ya'ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, ta'lim-tarbiya, məktab, o'rta va oliy ta'lim, fan, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari, san'at, xalq ma'naviy ijodiyotning barcha turlarini qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Har qanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma'naviy madaniyat voqealikni badiiy aks ettirish va o'zlashtirish vositasidir. Moddiy madaniyat dunyo va insonlarning moddiy hayot sharoitlari bilan, ma'naviy madaniyat esa urf-odat, rasm-rusm, an'ana, marosim va milliy qadriyatlar bilan



chambarchars bog'liqdir." - deydi O.Ahmedova o'zining lingvokulturologik tadqiqotlarida.

Professor O'.Yusupov "Lingvokulturema – o'z semantikasida (ma'nosida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema konseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda quroli hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi,"- deb ta'kidlaydi. Nazarimda, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda millitlararo madaniyatni lisoniy aspektida namoyon etish ijobi natija beradi.

Millat va elatning tarixi, turmush tarzi turli omillar ta'sirida o'ziga xos ravishda shakllanadi va millat, elatning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlaridan biriga aylanadi. Badiiy adabiyot bor joyda inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o'rinn qolmaydi, ularning ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik, millatparvarlik, fidoyidlik singari tuyg'ular yuksak darajaga ko'tariladi.

O'zbek tili ta'limi negizida xalq og'zaki ijodi, xususan, o'zbek xalq dostonlari bilan tanishish natijasida milliy qadriyatlarni e'zozlash, ajdodlarimiz nutqida faol bo'ib, bugungi kunda asta –sekin ijtimoiy omillar ta'sirida iste'moldan chiqib borayotgan yoki umuman chiqib ketgan sof turkiy leksika bilan tanishish, o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari, xususan, Alisher Navoiyni anglash orqali hayot, ma'rifat, axloq-odob, tarbiya masalalari borasida fikr yuritish, jadid adabiyoti namoyandalari, xususan, Abdulla Qodiri, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiyalar ijodini o'rganish bilan erk, millat, millatparvarlik kabi tushunchalarni teranroq his qilish, Abdulla Qahhor hikoyalarida yuksak mahorat bilan aks ettirilgan millat o'tmishi, inson taqdiri haqida fikr yuritish, Zulfiya she'riyati bilan tanishish orqali nazokat, sadoqat, vafodorlik kabi nozik fazilatlarni qalbga jo etish, mustaqillik davri adabiyoti, xususan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo asarlarini mutolaa qilib, qalblarga vatanparvarlik hissini, ona tuprog'imizga bo'lgan muhabbat tuyg'usini tuyish kabi maqsad yotadi. Birgina Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini o'qish bilan talabalar millat ruhini mujassam etgan o'ziga xos urf-udumlar, go'zal oilaviy munosabatlar, an'analar, qadriyatlар, millatning orzulari, armonlari talqinini, millatning o'z-o'ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasini, milliy shaxsiyatlarga xos sobit e'tiqodning poetik suvratlanishini, xalqimiz o'tmishini, ota-onasi va farzand o'rtasidagi munosabatlar asosini, o'zbek qizlariga



xos fazilatlarni hamda milliy tilimizning jozibasini, boyligini, imkoniyatlarini o'rghanadi.

Fikrlashimizcha, badiiy asarlarning til uslubi, badiiy matnda muallif tomonidan qo'llangan ayrim leksemalar talqini, tahliliga bag'ishlangan suhbatlar ham bugungi tolibi ilmlar uchun havo kabi zarur. Davrimizning taniqli adabiyotshunoslaridan biri f.f.d., prof. Bahodir Karimov Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini tahlil qilar ekan, asar qahramoni O'zbek oyim nutqida qo'llagan "Ko'ch" so'ziga to'xtaladi ("Men Yusufbek hojining ko'chiman.", ya'ni, ayoliman ma'nosida) va bu so'z asarda bir necha marotaba takror kelishi, va bu so'zning semantikasida o'zbek ayolining o'z juftiga sadoqati va hurmatini ifodalovchi mazmun aks etishi, yana bir jihat, bu so'z Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham keltirilishi va bu bilan *ko'ch* so'zining tarixiy ildizlariga ishora qilinishi kabi ma'lumotlarni keltiradi. Tabiiyki, Abdulla Qodiriydek har bir so'z, har bir tasvir zamiriga teran ma'nolarni joylay biladigan so'z san'atkori bu o'rinda ham har bir poetik detal, badiiy ifodani ma'lum bir maqsad, muayyan ijodiy konsepsiya asosida qo'llagan. "Ko'ch" so'zi ham bundan mustasno emas. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani milliylikni o'zida aks ettiruvchi leksik birliklar, lingvokulturemalarga boy. Albatta, ta'lim jarayonida ijodkorning so'z qo'llash mahoratini ochib bera olishlik, ijodkor leksikasidagi lingvokulturemalarning madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi sifatida ko'rsata olishlik ta'lim sifatini yaxshilashga, darsdan ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beradi.

Eslaganda ko'ring... Ko'rgach eslamang...

Imzo. Sana. Rasm. Sevgilim.

Hayotdan rang ketdi va tindi ohang,

Bizdan suvrat qoldi, xolos, sevgilim.

(Iqbol Mirzo)

Koloristika ranglar haqidagi fan bo'lib, u rang madaniyati va tili, rang garmoniyasi poydevoriga tayanadi. Ranglar har bir millat madaniyatida, har bir ijodkor ijodida o'ziga xos lingvokulturologik hamda semantik mazmunga ega. Inson ham hayotini turfa ranglar misolida tasavvur etadi. Ma'lumki, rang bildiruvchi leksemalar o'zbek tilining boshqa uslublariga qaraganda, badiiy uslubda keng qo'llanadi. Badiiy asarning ommalashishi, ko'p jihatdan, undagi obrazlarning tasvirlanishi, xarakterlarning ochib berilishiga ham bog'liqdir. Bu vazifani ko'proq rang bildiruvchi so'zlar bajaradi. Rang bildiruvchi so'zlar badiiy asarning mazmunini ifodalashda, uning ta'sirchanligini oshirishda, g'oyasini ochib berishda, milliy madaniyatni so'z bilan ko'rsata olishda ahamiyatlidir. Muallif har bir holatga mos rang bildiruvchi so'zlarni tanlab, ulardan mohirona foydalanadi. *Rang* leksemasi inson tasavvurida uning kayfiyati, ruhiy holatiga qarab turfa xil bo'yoqlarda aks etadi. Xususan, *Oq* rang ba'zi o'rinnarda soflik, ezgulik, rostgo'ylik kabi ijobiy emotsiyonal holatlar timsoli bo'lsa, ba'zi o'rinnarda motam, aza belgisi, turkiy qavmlarda musibat, qurg'oqchilik alomati timsoli hisoblanadi. Mazmun planida salbiy ma'no kasb etgan "oq qilmoq" yoki ijobiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan "oqlik olmoq" kabi turg'un birliklar ham lingvokulturemalarga misol bo'la oladi. Abdulla Qodiri ham o'z romanlarida



qahramonlar tashqi qiyofasi, xarakter holatini ijobiy ma'noda tasvirlashda *Oq rangini bildiruvchi so'zlardan mohirona foydalanadi*. "O'tgan kunlar" romani qahramonlaridan Zaynabni "*oq tanlik*" deb, Otabekni "*oq yuzlik*" deb, tana terisining rangi oq-sariq rangga moyil ekaniga ishoralar beradi. *Qora rang* gam-qayg'u, yovuzlik timsoli hisoblanadi. Yorqin ranglar pushti, qizil, havo rang insonning xush kayfiyatiga ishora qilsa, *siyoh rang, kul rang, jigarrang*, aksincha, tushkun kayfiyatni ifodalaydi. Ayrim ijodkorlar hayot mazmuni, qahramon ruhiyatini ham ma'lum bir ranglar bilan ifodalab, ranglarni xususiyashtirishga harakat qilsa, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo, aksincha, *Rang* leksemasidan umumiyl holatni ifodalashda foydalanadi. Uning qalamiga mansub "Surat" she'ri misralarida *Hayotdan rang ketdi va tindi ohang* jumlesi e'tiborni tortadi. Ushbu misralarda *rang* lekemasida metafora usulida ma'no ko'chganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, bu o'rinda muallif hayot mazmunining yo'qolishi, unga bo'lgan qiziqishning so'nishi, insonning ruhiy holatida na shodlik, na g'amning borligini hayotdan rangning ketishiga o'xshatadi. Ohangning tilnishi hayot shodliklarining tinishiga ishora.

*Bahorni bilmagan ellarni ko'rdim,
Bir chechak kulmagan yerlarni ko'rdim.
O'zingni sog'inib keladi navro'z,
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.*

*Chuchmoma chayqalib chalar qo'ng'iroq,
Hayot hidin sochar uyg'ongan tuproq,
Ildiz suratini chizadi chaqmoq,
Kaftingga ko'z suray, dehqonim, yurtim,
O'zingdan o'rgulay, bog'bonim, yurtim.*

(Navro'z qo'shig'i)

Yuqoridagi misralarda shoir vatan madhini kuylar ekan, leksik vositalarning jonlantirish usulidan mohirona foydalanib, she'rning badiiy ta'sir kuchini oshiradi. Avvalo, she'rda shoirning jonsiz narsaga, ya'ni vatanga jonli narsaga murojaat qilgandek munosabatda bo'lishining guvohi bo'lamiz. Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa – buyumni jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usul qahramonga hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor aytish imkonini beradi. She'rda Navro'zning *yurtimizni sog'inib kelishi, chechakning kulishi, chuchmomaning chayqalib qo'ng'iroq chalishi, qish uyqusidan uyg'ongan tuproqning hayot hidini sochishi, chaqmoqning ildiz suratini chizishi* kabi jonlantirish elementlarini uchratamiz. Bu jonlantirishlar she'rning ta'sir kuchini oshirgan. Birgina "hayot hidin sochar uyg'ongan tuproq" birligini olaylik. Shoir o'z she'rlerida "tuproq" leksemasidan unumli foydalanadi. Qarangki, shu birgina misrada "uyg'ongan tuproq", "hayot hidi", "tuproqning hayot hidi", "tuproqning hayot hidini sochishi" kabi jonlantirish namunalarini ko'ramiz. Bir qarashda oddiy, jo'n bo'lib ko'ringan ko'chma ma'nodagi bu sintaktik birliklar, lingvokulturemalar mazmun planida ko'chma ma'no kasb etgan



semalar yotibdi. Bahor - uyg'onish fasli. Tabiiyki, bu uyg'onish tabiatning ustuni, asosi bo'lgan tuproqqa ishlov berishdan boshlanadi. Shu tuproq odamzodni boqadi. Tabiatdagi ko'zni quvontirguvchi barcha go'zalliklarning asosi ham tuproqdir. Albatta, hayotning hidi yo'q. Shoir hayotning mazmuni, quvonchi-yu shodliklarini "hid" leksemasi orqali beradi. Tuproq esa bu mazmunni yaratishdagi asosiy omil hisoblanadi. Chunki inson go'zallik shaydosi. Tabiatdagi har qanday o'zgarish inson ruhiyatiga ta'sirini o'tkazganidek, milliy adabiyot namunalarida uchraydigan lingvokulturemalar ham til o'rganuvchilarning ongiga, hissiyotlariga, dunyoqarashiga va hayotga bo'lgan munosabatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, til ta'limida til va nutq madaniyati, estetik didni tarbiyalash masalalariga e'tiborning qaratilishidan asosiy maqsad talabalarni ta'lim jarayonida mustaqil va ijodiy fikrlashga, o'z fikrini o'zgalarga aniq, to'liq va ifodali yetkaza bilishga o'rgatish; tafakkur :rasini kengaytirish va nutqiy faoliyatni yanada shakllantirish; milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, muqaddas vatanimiz, pokiza ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat. Shu sababli, til o'rganishni maqsad qilgan shaxs tegishli millat tarixi va buguni bilan tanish bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunda har bir so'z, so'z birikmasi, ibora maqol, matal, topishmoq, o'xshatish vositalari hamda xalq ijodi namunalarining boshqa ko'rinishlari zamirida yashiringan semalar bo'yog'i, ularning yaratilish sharoiti hamda sabablarini anglab yetish imkoniyatlari vujudga keladi. Shu bois milliy-madaniy hamda etnik qarashlar, mental xususiyatlar yakdilligi natijasida vujudga kelgan lingvistik birliklarning bari lingvokulturologiya fani :rasida o'rganiladigan muhim tushunchalar sifatida e'tirof etiladi. Demak, lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy o'rganish obyekti hisoblanadigan til va madaniyat aloqadorligini aniqlash, tahlil qilish dolzarbdir, ularning o'zaro chambarchas bog'langan, bir-biridan ajratib bo'lmaydigan tushunchalar ekanligiga ham shubha yo'qdir, zero bugungi kunda til madaniyatsiz, madaniyat tilsiz mavjud bo'la olmaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. -Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2014. -B.879.
2. Ahmedova O. Lingvokulturologiya – tilning madaniy fenomeni sifatida // Xorijiy filologiya jurnali.- Toshkent, 2019, 2-son.
3. Iqbol Mirzo. Ko'zlaringga termulsaydim. -Toshkent, 2020 -B.257.
4. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. -Toshkent, 2021, 248 b.
5. Usmonov F. O'zbek tilida o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol.f.d. (PhD) diss. -Toshkent, 2020. – B.140.
6. Qurbanova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi.-Toshkent: Universitet, 2014.



V SHU'BA. MADANIY HAMKORLIKNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI: TIL VA ADABIYOT	
<i>Бердин Азат Тагирович.</i> ОБЩЕЕ И ОСОБЕННОЕ В ГЕНЕЗИСЕ УММЫ В ТЮРКСКИХ РЕСПУБЛИКАХ РОССИИ: ОПЫТ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ СМЫСЛОВ	375
<i>Gahramanov Sabuhi Adil oglu.</i> THE AIM OF AZERBAIJANISM AND DISSIDENTISM IN KHALIL RZA ULUTURK'S ARTISTIC CREATIVITY	388
<i>Гайфуллина Миляуша Фаниловна, Абдуллина Лилия Бакировна.</i> ПОЭТИКА ДОМА В РАННЕЙ ПРОЗЕ Л.Н. ТОЛСТОГО (НА МАТЕРИАЛЕ АВТОБИОГРАФИЧЕСКОЙ ТРИЛОГИИ «ДЕТСТВО», «ОТРОЧЕСТВО», «ЮНОСТЬ»)	396
<i>Gözde GÜNGÖR.</i> ABDULLA KAHNAR'IN MAHALLE ADLI HİKÂYESİNDE İDEOLOJİK ÖZNELEŞME SÜRECİ	405
<i>Həsənova Könül Nəriman qızı.</i> POEZİYANIN ÇOXNÖQTƏ İLƏ İŞARƏLƏN LEKSİK VAHİDLƏRİNĐƏ FORMAL QƏNAƏTİN ANLAMA MODELLƏRİ	412
<i>Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna.</i> ALEKSANDR BOROVKOV - ALISHER NAVOIY TADQIQOTCHISI SIFATIDA	419
<i>Ebru KABAKÇI.</i> TÜRKİYE'DE EĞİTİM ALANINDA YAZILAN LİSANSÜSTÜ TEZLERDE BAĞIMSIZ TÜRK CUMHURİYETLERİNE YÖNELİK İLGİNİN SEYRİ (2000-2025): AKADEMİK PERSPEKTİFTEN KÜLTÜREL BÜTÜNLİŞMELYE BİR BAKIŞ	427
<i>Кожоева Гулжасамал Жайлообаевна.</i> ХИАЗМДУУ КАЙТАЛООЛОРДУН ӨЗГӨЧӨЛҮКТӨРҮ	439
<i>Musayev Dəyanət Musa oğlu.</i> BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAY VƏ TARİXİ MİSSİYASI	446
<i>Mirzəzadə Rəqsanə.</i> BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAYDA İŞTİRAK EDƏN ÖZBƏK NÜMAYƏNDƏLƏRI	456
<i>Гулноз Сатторова.</i> МУСТАЙ КАРИМ: ШАХС ВА ИЖОД УЙҒУНЛИГИ	461
<i>Nərmən Rəhimova.</i> RƏŞAD NURİ GÜNTƏKİNİN "ÇALIKUSU" ƏSƏRİNİN TƏHLİLİ	465
<i>Юсупов Ильшат Фаритович.</i> ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ЛАНДШАФТА НА МАТЕРИАЛЕ ЗАУРАЛЬСКИХ РАЙОНОВ БАШКОРТОСТАНА	471
<i>Р.А. БАЗАРБАЕВА.</i> КӨРКЕМ МӘТІНДІ ТАЛДАУ АРҚЫЛЫ ОҚУШЫЛАРДЫҢ КРЕАТИВТІ КОМПЕТЕНЦИЯСЫН ДАМЫТУ	478
<i>Inogamova Nargiza Shavkatovna.</i> LINGVOKULTUREMALARING TIL VA ADABIYOT TA'LIMI JARAYONIDAGI ROLI XUSUSIDA	482
<i>Panjiyeva Zilola.</i> TILNING PARAMEOLOGIK FONDI	489
<i>Musayeva Sarvinoz.</i> YOZMA NUTQDA IMLOVIY XATOLAR: SABAB VA OQIBATLARI	490
<i>Лиана Саттарова, Фания Сулейманова.</i> ПРОБЛЕМА «НЕВЫРАЗИМОГО» В ДНЕВНИКАХ 50-Х ГГ.	493

